

“TASDIQLANGAN”

“Kapitalbank” ATB

Aksiyadorlar Umumiy majlisi tomonidan

2019-yil 30-dekabr

(4/2019-son majlis bayoni)

Majlis raisi

_____ **M.A.Abdusamadov**

“Kapitalbank” ATB
Kuzatuv kengashi to‘g‘risida
Nizom
(Yangi tahriri)

Toshkent – 2019

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom (bundan quyida matn bo'yicha - "Nizom") O'zbekiston Respublikasi Fuqaro kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahrir), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining (bundan quyida matn bo'yicha "qonunchilik") boshqa hujjatlari, shuningdek "Kapitalbank" ATB Ustavi va boshqa mahalliy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Nizom "Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat bankining Kuzatuv kengashi (bundan quyida - "Kuzatuv kengashi") maqomi va ishining reglamentini, bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash tartibi, shuningdek ularning huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi.

1.3. Bankning Kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida nazorat va tekshirish vazifalarini bajaradi va umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun mas'ul bo'ladi.

1.4. Kuzatuv kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqaro kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahriri), "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" (yangi tahriri), "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va farmoyishlariga, shuningdek boshqa qonuniy hujjatlar, "Kapitalbank" ATB (bundan quyida – bank) Ustavi va bankning boshqa mahalliy hujjatlariga amal qiladi.

II. BANK KUZATUV KENGASHINING MAJBURIYATLARI

2.1. Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

2.1.1. qo'mitalar va boshqa struktura bo'linmalarini tashkil etish va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

2.1.2. bank Ustavining 63-bandida ko'rsatilgan, ushbu Nizom va bankning boshqa mahalliy hujjatlari bilan bankning Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

2.2. Kuzatuv kengashining majburiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

o'z vakolatlarini bank aksiyadorlari manfaatlarini yo'lida amalga oshirish;

bankka vakolatli rahbarlik qilishni ta'minlash;

bankning joriy faoliyatini, kreditlash va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligini (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida) nazorat qilish;

Bank boshqaruvi bilan maslahatlashgan holda bankning biznes-rejasini tasdiqlash;

Bankning tegishli kapitallashuvini saqlab turish;

bank faoliyatining strategiyasini shakllantirish;

bankning daromadlari bo'yicha monitoring olib borish;

bank Kuzatuv kengashi huzuridagi Ichki audit departamenti, Xatarlarni boshqarish va korporativ konsultant departamenti, shuningdek boshqa struktura bo'linmalari ishini tashkil etish;

qonuniy, xavfsiz va oqilona bank faoliyatini amalga oshirish, shuningdek bank

maqsadlariga erishish uchun tegishli operatsiyalar siyosatini qabul qilish;

tegishli nazoratni va bank siyosati va qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlash uchun bank operatsiyalarini nazorat qilish;

yilning har choragida bank faoliyatining natijalari to'g'risidagi hisobotlarni eshitis;

aksiyadorlarning har yili o'tkaziladigan Umumiy majlisida korporativ boshqaruv bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilinishi to'g'risida hisobot taqdim etish;

"Kapitalbank" ATB ning Ichki nazorat to'g'risidagi Nizomiga rioya qilinishini nazorat qilish.

III. BANK KUZATUV KENGASHINI SAYLASH TARTIBI

3.1. Bankning Kuzatuv kengashi 5 (besh) kishidan iborat tarkibda saylanadi. Bunda bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi bank bilan bog'liq shaxslar bo'lmashligi kerak, ularning bank Kuzatuv kengashidagi a'zolik hollari bundan istisno.

Bankning Kuzatuv kengashi a'zolarini aksiyadorlar Umumiy majlisi bir yillik muddatga cheklanmagan marta qayta saylanish huquqi bilan saylaydi.

3.2. Bank boshqaruvi a'zolari va Bank boshqaruvi raisi, shuningdek bankda, uning sho'ba va unga bog'liq xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlovchi shaxslar, ushbu jamiyatlarning boshqaruv organlari a'zolari bankning Kuzatuv kengashiga saylana olmaydilar.

Bankning Kuzatuv kengashi vazifasiga nomzodlar benuqson nomga, amaliy bank tavakkalchiligini samarali boshqarish, o'z vakolatlari chegarasida asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'minlash uchun zarur tajriba, bilimlar va malakaga ega bo'lishi kerak.

Bankning Kuzatuv kengashi a'zolari bankni oqilona korporativ boshqarishga yordamlashishi va o'z vakolatlari va majburiyatlarini bajarishda bank, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini hisobga olishi, shuningdek bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan samarali hamkorligini ta'minlashi kerak.

Quyidagilar bankning Kuzatuv kengashi a'ziligiga saylanishi mumkin emas yoki saylangan shaxs Kuzatuv kengashiga a'zolik huquqidan mahrum qilanadi:

shaxs ikki yoki undan ortiq bankda kuzatuv kengashining a'zosi bo'lsa yoki bila turib kuzatuv kengashi a'zosi bo'lmoqchi bo'lsa, ushbu banklar bitta bank guruhiga kiradigan hollar bundan istisno;

shaxsning vakolatlari Markaziy bank talabi bilan muddatidan oldin to'xtatilgan bo'lsa.

Markaziy bank Bankning kuzatuv kengashi a'ziligiga ko'rsatilgan shaxslar nomzodini ular lavozimga kirishishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartibda kelishadi.

Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasiga nomzodlar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- a) oliy professional ma'lumot;
- b) rahbarlik lavozimida kamida 5 (besh) yillik ish tajribasi;
- v) korporativ boshqaruv bo'yicha sertifikat (mavjud bo'lsa yaxshi).

3.3. Bankning ovoz huquqiga ega aksiyalarining jami bir foizidan kam bo'lmagan aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador) O'zbekiston Respublikasi va bank Ustavi bilan o'rnatilgan tartibda bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega, bunda nomzodlarning soni Kuzatuv kengashining son tarkibidan ortiq bo'lmashligi kerak.

3.4. Bankning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovlari kumulyativ ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli bo'lgan ovozlar soni Bankning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni to'liq bitta nomzodga berishi yoki ularni ikkita va undan ko'p

nomzodlar o'rtasida taqsimlash huquqiga ega bo'ladi.

Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan hisoblanadi.

Bank Kuzatuv kengashi a'zosining vakolatlari quyidagi asoslar bo'yicha:

a) yozma bildirish bilan o'z vakolatlarini o'zining ixtiyoriga ko'ra zimmasidan soqit qilganida;

b) sud tomonidan bankka mulkiy zarar yetkazishda aybdor deb topilgan hollarda xo'jalik jamiyatlarida kamida 1 (bir) yillik muddatga rahbarlik lavozimlarini egallashi ta'qiqlangan qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjudligida;

v) bank Kuzatuv kengashi a'zosi vafot etganida;

g) bank Kuzatuv kengashi a'zosi qamoqqa olinganida;

d) bank aksiyadorlari Umumiy majlisi tegishli qaror qabul qilgan hollarda to'xtatilishi mumkin.

IV. BANK KUZATUV KENGASHINING RAISI

4.1. Bank kuzatuv kengashining Raisini Bank kuzatuv kengashi a'zolari uning tarkibidan Bank kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylaydilar.

4.2. Bank kuzatuv kengashi Raisi uning ishini tashkil etadi, Bank kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda majlis bayoni yuritilishini tashkil etadi, Aksiyadorlarning umumiy majlisida raislik qiladi, bank nomidan Boshqaruv raisini ishga yollash to'g'risida mehnat shartnomasini tuzadi.

Bank kuzatuv kengashining Raisi joyida bo'lmagan hollarda uning vazifasini Bank kuzatuv kengashi a'zolaridan biri Bank kuzatuv kengashining tegishli majlis bayoni asosida bajaradi.

V. BANK KUZATUV KENGASHI MAJLISINI O'TKAZISH TARTIBI

5.1. Bank kuzatuv kengashining majlisi Bank kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, kamida bir foiz oddiy aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabi bilan, Bank kuzatuv kengashining a'zolari, bank Taftish komissiyasi, bank Boshqaruvi, Ichki audit departamenti direktori, ichki audit, shuningdek Bankning kuzatuv kengashiga hisob beradigan bankning boshqa struktura bo'linmalari tashabbusi bilan chaqiriladi.

5.2. Bank Kuzatuv kengashi majlisi oyda kamida bir marta chaqiriladi.

5.3. Bank Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kворum bank Kuzatuv kengashining saylangan a'zolari sonidan kamida sakson foizni tashkil etishi kerak.

5.4. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari soni bank Ustavida ko'zda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonidan sakson foizdan kam bo'lib qolgan hollarda, bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning Navbatdan tashqari majlisini chaqirishi shart. Bank Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek bank Boshqaruvi raisi o'z vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatgan hollarda uning vazifalarini vaqtincha bajarib turuvchini tayinlash huquqiga ega.

5.5. Bank kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda ishtirok etayotgan kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Bank ustavining 71-bandida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish hollari bundan istisno.

5.6. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilishda ovozlar teng bo'lgan hollarda Bank Kuzatuv kengashining raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'ladi.

Bank Kuzatuv kengashi bitta a'zosining ovozini Bank kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.7. Bankning Kuzatuv kengashi majlisida majlis bayoni yuritiladi, u majlis

o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechikmay tuziladi va tasdiqlanadi.

Bankning Kuzatuv kengashi majlisining majlis bayoni majlisda ishtirok etgan Bank kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular majlis bayonining to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladilar.

Bankning kuzatuv kengashining qarorlari Bankning kuzatuv kengashi barcha a'zolarining bir ovozdan sirdan (so'roqlash yo'li bilan) ovoz berishi yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Bank kuzatuv kengashi majlisining majlis bayoni imzolangan kuni bajarish uchun Bank boshqaruviga beriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan hollarda bu qaror to'g'risidagi axborot Bank boshqaruviga bank kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kunda beriladi.

5.8. Majlis bayonida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va o'tkazilgan joy;

majlisda ishtirok etgan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovozga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha ovoz berish natijalari;

qabul qilingan qarorlar.

5.9. Kuzatuv kengashining qarorlari (tijorat va bank siri bo'lgan qarorlardan tashqari) bilan bank aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin.

5.10. Bankning kamida 1% oddiy aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar qonunda o'rnatilgan tartibda Bank Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilishi va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organlari a'ziligiga nomzodlar bo'yicha, ularni aksiyadorlarning Umumiy majlisi o'tkazilgunicha almashtirish imkoniyati bilan takliflar kiritishi mumkin.

VI. BANK KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank kuzatuv kengashining a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

Bank kuzatuv kengashining majlisida shaxsan ishtirok etish, reglament bilan ajratilgan vaqt chegarasida majlisda muhokama qilinayotgan masala bo'yicha so'zga chiqish;

bank faoliyatining vaqtning muayyan davridagi natijalari to'g'risida, uni rivojlantirish rejalarini to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarib, bank Kuzatuv kengashidagi ishi uchun muayyan miqdorda haq olish.

Bank Kuzatuv kengashi raisi bank Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasidagi vazifalarni bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi uchun aniq vazifalarni ko'rsatgan holda taqsimlaydi.

6.2. Bank Kuzatuv kengashi a'zosining majburiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

o'z vakolatlarini bank manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv siyosatini, boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan bank tavakkalchiligini aniqlash, boshqarish va monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor qilish, bank kapitalining yetarli bo'lishini ta'minlash, shuningdek bank maqsadlariga erishishi uchun qonuniy, xavfsiz va samarali faoliyatni amalga oshirish siyosatini tasdiqlash va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;

bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishini nazorat qilish;

Bank boshqaruvi nazoratini amalga oshirish;

qonunchilik, bank Ustavi, ushbu Nizom bilan belgilangan vakolatlar doirasidagi boshqa majburiyatlar.

6.3. Bankning Kuzatuv kengashi a'zosi bitimning bir tomoni bank hisoblanadigan bitimdan moliyaviy manfaatdor bo'lgan hollarda, shuningdek bank Kuzatuv kengashi a'zosining

boshqa manfaatlar ziddiyati mavjud bo'lgan hollarda bank Kuzatuv kengashi a'zosi oldindan bank Kuzatuv kengashiga o'z manfaatdorligi to'g'risida bitim tuzilish vaqtigacha xabar berishi shart, bitim to'g'risidagi qaror esa bunday manfaatdorligi bo'lmagan bank Kuzatuv kengashi a'zolarining yoki aksiyadorlar Umumiy majlisi aksiyadorlarining ko'pchiligi tomonidan qabul qilinishi kerak. Bunda Bank Kuzatuv kengashining manfaatdor a'zolari bunday bitim bo'yicha muhokamalarda va qarorlar qabul qilishda ishtirok etmaydi.

6.4. Bank kuzatuv kengashining a'zolari bank Kuzatuv kengashining u yoki bu qarorlarni qabul qilishiga ko'rsatgan ta'siri uchun bevosita va bilvosita mukofot olish huquqiga ega emas.

6.5. Bank kuzatuv kengashining a'zolari o'zlarining shaxsiy boylik orttirish maqsadlarida bank imkoniyatlaridan (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, bank faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot) foydalanish huquqiga ega emas.

6.6. Bank kuzatuv kengashining a'zosiga to'lanadigan mukofotlar va kompensatsiyalar miqdori aksiyadorlarning Umumiy majlisida tasdiqlanadigan bankning Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash to'g'risidagi nizom bilan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank Ustavi bilan o'rnatilgan shartlar va cheklovlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

VII. BANK AKSIYADORLARINING HUQUQLARI VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

7.1. Bank kuzatuv kengashi bank aksiyadorlarining huquqlari va manfaatlarini:

Bank faoliyatini aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilgan holda tashkil etish;

Aksiyadorlarning Umumiy majlisiga tayyorgarlik va uni o'tkazish, ovoz berish va ovozlarni hisoblash va qarorlar qabul qilish protsedurasini nazorat qilish;

bank ustav kapitali ulushlari o'zgariganida ustav jamg'armasini ko'paytirish yoki kamaytirish, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarish va hokazolar yo'li bilan aksiyadorlarning huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik;

bankning samarali dividend siyosatini ishlab chiqish;

bank aksiyadorlarining o'zaro munosabatlariga bog'liq masalalarini ko'rib chiqish;

aksiyadorlarning takliflari va Bank boshqaruvining noqonuniy va asoslanmagan harakatlari ustidan shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish yo'llar bilan himoya qiladi.

VIII. BANK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

8.1. Bankning kuzatuv kengashi davriy ravishda (har yil choragida kamida bir marta) Bank boshqaruvidan bankning faoliyati va moliyaviy holati to'g'risida sharhlar va yozma hisobotlar, shu jumladan ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni oladi, shuningdek Bank boshqaruvi Raisi va Ichki audit departamenti direktorining ma'ruzalarini eshitadi.

Bankning kuzatuv kengashi a'zolari bunday hisobotlarni va tavsiyalarni ularning to'g'riligi va amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash maqsadida jiddiy tekshiradi.

8.2. Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatini nazorat qilish bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun tegishli qo'mitalar va komissiyalarni tuzadi va ularning nizomlarini tasdiqlaydi.

Har bir komitet va komissiya o'zi mustaqil majlislar o'tkazadi va o'z faoliyati to'g'risida Bank kuzatuv kengashi oldida uning majlislarida hisob berishi zarur.

IX. KADRLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH

9.1. Bankning Kuzatuv kengashi Inson kapitalini boshqarish siyosati (bankning kadrlar siyosati)ni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

9.2. Kadrlar siyosati, qonunchilikka muvofiq, o'z ichiga:

bank xodimlarini mukofotlash, rag'batlantirish va jazolash tizimi;

o'qitish va qayta o'qitish dasturi;

bo'sh lavozimlar yuzaga kelgan hollarda rahbarlarni ko'tarish tartibi;
bank rahbariyatini ishdan bo'shatish shart bo'ladigan holatlarni belgilashni oladi.

9.3. Bankning Kuzatuv kengashi bank aksiyadorlari Umumiy majlisiga bank Boshqaruvi raisini tayinlash yoki uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatishni tasdiqlash to'g'risidagi masalani kiritadi.

Bank Boshqaruvi raisini tayinlash to'g'risidagi qaror qonunchilikda va bankning mahalliy hujjatlarida o'rnatilgan tartibda tanlov asosida qabul qilinishi, unda xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin.

9.4. Bankning Kuzatuv kengashi:

Bank Boshqaruvi a'zolari va bankning asosiy xizmatlari rahbarlarining ishini baholash mezonlari;

odob-ahloq va o'zini tutish qoidalari;

manfaatlar ziddiyatining oldini olish va bartaraf etish siyosati;

vakolatga ega emaslik, vijdonan ishlamaslik, manfaatlar ziddiyati yoki boshqa sabablarga ko'ra bankning mansabdor shaxslari zimmalariga yuklatilgan vazifalardan chetlatiladigan shartlar ro'yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi

X. BANKNI ADEKVAT KAPITALLASHTIRISHNI SAQLAB TURISH

10.1. Bank kapitalini saqlash va uning bank operatsiyalari miqyoslari va tavakkalchilik darajalariga muvofiqligini ta'minlash maqsadlarida Bankning Kuzatuv kengashi:

bankning yuz berish ehtimoli bo'lgan yo'qotishlarga qarshi Markaziy bank belgilangan miqdorlarda maxsus zaxiralar yaratishini nazorat qiladi;

Bank Boshqaruvidan bank tavakkalchiligi darajasining Markaziy bank belgilagandan yuqori bo'lmashini ta'minlashni talab qiladi;

bank aksiyalarini joylashtirish choralarini ko'radi;

bank kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlanib turishini ta'minlaydi.

10.2. Bankning Kuzatuv kengashi bankni rivojlantirish biznes-rejasini (ham o'zi mustaqil, ham maslahatchi va ekspertlarni jalb etgan holda) ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, biznes-reja o'z ichiga quyidagilarni oladi:

kreditlash to'g'risida qarorlar qabul qilish siyosati;

kreditlarni nazorat qilish protsedurasi;

aktivlar va passivlarni boshqarish tizimi;

investitsiya kiritish tartibi.

10.3. Bankning Kuzatuv kengashi bank Boshqaruvining bankni rivojlantirish biznes-rejasini amalga oshirishini ta'minlaydi.

10.4. Bankni rivojlantirish biznes-rejasi, odatda zarur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish maqsadida yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

XI. BANK KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOGBARLIGI

11.1. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bank Ustavida ko'zda tutilgan tartibda javobgar bo'ladilar.

XII. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqilgan:
Korporativ maslahatchi

Xudayberganov A.S.

Kelishilgan:

Xatarlarni boshqarish departamenti
direktori

Kan T.V.

Ichki audit departamenti
direktori v.b.

Kariyev A.S.

Yuridik xizmat departamenti direktori

Pachurin V.V.